ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2025.5/1

www.ilmsarchashmalari.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5/1-son (may 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

Jurayeva Iroda Axmedovna (dotsent, filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston; irodajuraeva@gmail.com)

J.K.ROULINGNING “GARRI POTTER” ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING MILLIY-LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasi mifologemalar, metaforalar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar va ramzlar kabi turli vositalar orqali ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, badiiy adabiyotlardagi qahramon ismlarini lingvistik o‘rganishning ahamiyati, ularning kognitiv faoliyatga ta’sir etishdagi roli tahlil qilinadi. Ingliz yozuvchisi J.K.Roulingning asarlari qahramonlari ismining tahlil qilinadi. Asardagi bir qator qahramonlarining ismlari etimologik, semantik, sintaktik tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, olam manzarsi, onomastika, antroponimlar, lingvistik, etimologiya, semantik, sintaktik, ism, fantastik.*

НАЦИОНАЛЬНО-ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ В «ГАРРИ ПОТТЕРЕ» ДЖ.К.РОУЛИНГ

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос о том, как языковая картина мира выражается через различные средства, такие как мифологемы, метафоры, сравнения, коннотативные слова, стереотипы и символы. Также анализируется значение лингвистического изучения имен персонажей в художественной литературе и их роль в влиянии на когнитивную деятельность. Проводится анализ имен персонажей произведений английской писательницы Дж.К.Роулинг. Имена ряда персонажей в произведении подвергнуты этимологическому, семантическому и синтаксическому анализу.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, картина мира, ономастика, антропонимы, лингвистический, этимология, семантический, синтаксический, имя, фантастика.*

NATIONAL-LINGUISTIC FEATURES OF ANTHROPONYMS IN J.K.ROWLING’S “HARRY POTTER”

Annotation. *This article discusses how the linguistic picture of the world is expressed through various means such as mythologemes, metaphors, similes, connotative words, stereotypes, and symbols. It also analyzes the importance of linguistic study of character names in fiction, and their role in influencing cognitive activity. The names of the characters in the works of English writer J.K. Rowling are analyzed. A number of characters’ names in the work have been subjected to etymological, semantic, and syntactic analysis.*

Keywords: *linguoculturology, world picture, onomastics, anthroponyms, linguistic, etymology, semantic, syntactic, name, fantasy.*

Kirish. Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning muayyan muammolarini ikki xil yo‘nalishlarda hal qilishi mumkin. Birinchidan, u madaniy omilning tilga ta’irini, ikkinchidan, til omilining madaniyatga ta’sirini o‘rganadi. Boshqacha qilib aytganda, lingvokulturologiya tilga madaniyatning ta’siri va madaniyatga tilning ta’sirini o‘rganadi. Olamning lisoniy manzarasi deganda, ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi xalqning dunyoni idrok etishi va tushunishi tushuniladi. Har bir til xos tarzda dunyoni o‘zida aks ettirishi, tasvirlashi va kategoriyalashi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so‘zlar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar, ramzlar vositasida yaratiladi. Har qanday til o‘zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o‘ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Olamning lisoniy ko‘rinishi turli xil ranglarda, ayniqsa mifologemalar, obrazli metaforik so‘zlar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar, ramzlar va boshqa vositalar orqali yaratiladi. Har bir til o‘zida shu til egalarining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasi shakllanishiga ta’sir etuvchi milliy, o‘ziga xos xususiyatlar tizimini birlashtiradi [1,2]. Olamning lisoniy manzarasi har bir tilga milliy o‘ziga xoslikni beradi. Bu o‘ziga xoslik tilning boshqa tillardan farqini belgilab, o‘zga madaniyat vakillarini ushbu til egalarining dunyoqarashi bilan tanishtiradi. Misol uchun, geografik sharoitlari turlicha bo‘lgan xalqlarning tillarida tabiat hodisalari, hayvonlar va o‘simliklar dunyosiga oid so‘zlar boyroq bo‘lishi mumkin yoki jamiyatda ijtimoiy iyerarxiya muhim bo‘lgan tillarda murojaat shakllari va hurmatni ifodalovchi so‘zlar ko‘proq ishlatilishi mumkin [2,11-b.]. Yoki shu jamiyatdagi yashayotgan insonlarning yashash joylarining nomlari, u yerdagi insonlarning ismlari, bularning hammasi olamning tildagi manzarasini ifodalaydi. Shu bilan birgalikda, olamning lisoniy

manzarasi har bir til orqali yaratilgan dunyo manzarasi bo‘lib, u shu til egalarining madaniyati, an’analari va dunyoqarashini aks ettiradi.

Onomastika (grekcha *onomastikos,* onoma–*ism* so‘zidan olingan) bo‘lib, *antroponim* atamasi (grekcha *anthropos* – odam va onyma–*ism* so‘zlaridan kelib chiqqan) inson ismlari va familiyalarini o‘rganishga qaratilgan. Toponimlar (grekcha *topos* –joy so‘zidan olingan) joy nomlarini o‘rganadi [3;112-b.]. Odatda, antroponim atamasi shaxs ismlariga, toponomika esa joy nomlariga nisbatan ishlatiladi. Fernandesning [4;45-b.] ta‘kidlashicha, bu bo‘linish asosan ixtiyoriy, chunki joylar odamlar sharafiga qo‘yilishi mumkin. Masalan, AQSHning Nebraska shtatidagi Linkoln shahri Amerika Prezidenti Avraam Linkoln sharafiga, Kanadadagi Prins Albert shaxri qirolicha Viktoriyaning turmush o‘rtog‘i shahzoda Albert sharafiga qo‘yilgan. Masalan, mamlakatimizda ham Sharof Rashidov, Akmal Ikromov, Beruniy, Navoiy tuman va shaharlari mashxur insonlar va allomalar nomlariga qo‘yilgan. Shuningdek, joylarning nomlari insonlarga berilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ayollarga Parij va Dakota, Navbahor ismlari berilganligini, erkaklarga esa Orlando, Toshkenboy, Qo‘qonboy ismi qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri, askariyat nomshunoslik tadqiqotlari ushbu ikkita asosiy yo‘nalishdan biriga to‘g‘ri keladi, ammo nomlash shu bilan cheklangan degani emas. Onomastika – bu nomlarni o‘rganish, antroponimika bu inson ismlari, familiyalari, sharifi, laqab va tahalluslarni o‘rgansa, onomastikaning boshqa bo‘limlari, shuningdek, joylarning nomlari (masalan, davlatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar), landshaft elementlarining nomlari (masalan, dengizlar, daryolar, soylar, ko‘llar, tog‘lar, tepaliklar, vodiylar, o‘rmonlar, butazorlar, botqoqliklar), tijorat mahsulotlarining nomlari (masalan, shokoladlar, lab bo‘yoqlari, vinolar), ijodiy asarlarning nomlari (masalan, kitoblar, filmlar, spektakllar, she’rlar), fantastik asarlardagi nomlar, shuningdek, haqiqiy dunyodagi nomlarni o‘rganadi [5].

Antroponimika – bu onomastikaning bir sohasi bo‘lib, u insonlarning ismlari, otasining ismi (patronim), familiyasi, avlod nomi, laqablari va taxalluslarini, shuningdek, yashirin ismlarni (kriptonimlar) o‘rganadi. Bundan tashqari, badiiy asarlardagi ismlar, folklor, afsonalar va ertaklardagi qahramonlarning nomlari ham antroponimika tadqiqotining obyekti hisoblanadi. Antroponimika xalq orasida qo‘llaniladigan va kanonik (diniy qoidalarga mos, cherkov tomonidan tasdiqlangan) shaxsiy ismlarni, shuningdek, bir ismning ada-biy, dialektal, rasmiy va norasmiy shakllarini ajratib o‘rganadi. Har bir elat (etnos) har bir davrda o‘ziga xos antroponimikaga shaxsiy ismlar ro‘yxatiga ega bo‘ladi.

Ismlarni ilmiy o‘rganishning mavjudligi o‘ziyoq nomlashning dunyoda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Algeo va Algeoning [6;265-b.] ta’kidlashicha, biror narsaga nom berish uni yaratish demakdir. Nomsiz narsa e’tibordan chetda qolgan narsa esa kognitiv va kommunikativ maqsadlar uchun mavjud emasdir. Algeo va Algeo [7;265-b.], hatto ismlarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator fanlarni ham sanab o‘tadilar: antropologiya, mantiq, falsafa, genealogiya, tarix, leksikografiya, tilshunoslik va bu ro‘yxat bundanda uzun ekanligini ta’kidlashgan. Badiiy asarlarda real qahramon ismlari, joy nomlari va narsalarning nomlari bevosita tilga olinadi. Axir, adabiyot tilni yoki xalqni, madaniyat va an’analarni ifodalaydi [8;20-b.]. Buni deyarli har bir adabiy asarda ko‘rish mumkin. Lev Tolstoy “Urush va tinchlik” asarini yozganida, u bizga hayotda yashab o‘tgan real insonlarni (Napoleon, Aleksandr I), haqiqiy joylarning nomlarini (Sankt-Peterburg, Moskva) va haqiqiy narsalarning nomlarni (Austerlits jangi, Deka-bristlar qo‘zg‘oloni) kabi o‘z ichiga olgan tarixiy voqea-hodisalar haqida to‘liq ma’lumot berilgan.

Ba’zi asar mualliflari adabiy asarlarda mavjud nomlardan, boshqalari esa to‘qima nomlardan ham foydalanadi. Asardagi qahramonlarning ismlari ularning xatti-harakatlari, bajarayotgan ishlari, xarakterlari, muhim tematik motivlarni qamrab oladi. Shuningdek, ismlar yozuvchining nuqtayi nazari-ni ko‘rsatish kabi bir qator maqsadlarda ham ishlatiladi. XX asrga kelib inson ismlari gumanitar fanlarning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Ushbu sohada P.A.Florenskiyning asarlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u tilning falsafiy jihatlariga, ismlarni inson shaxsi bilan chambarchas bog‘liq holda o'rganadi. Bu faylasufning asarlari rus diniy falsafasini yoritishga qaratilgan bo‘lib, unda inson va uning ismi o‘rtasidagi aloqalar, ismning mohiyati va so‘zning tabiati kabi fundamental masalalar ko‘rib chiqiladi [9].

Bundan tashqari, taniqli faylasuf Jon Styuart Mill shaxsiy ismlar bir narsani boshqasidan ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladigan ma’nosiz belgilardir deb ta’kidlaydi [10]. Biroq bu fikr, ko‘pincha, nomlar nafaqat ma’nosiz emas, balki aksincha, juda ko‘p ma'noga ega, degan qarashlar bilan rad etiladi. Demak, ismlardagi ma’no o‘quvchilarning adabiy qahramonlar shaxsiyatini qanday qabul qilishiga ta’sir qilishi mumkin. Ism va familiyaning tarkibiy qismlari hamda ularning ism egalarining lingvistik, etnik, ijtimoiy va madaniy mansubligini aks ettirishi tahlil qilinadi. Shunday qilib, inson ismi uni jamiyatda boshqalardan ajratib turish imkonini beradi. Ism insonning o‘zligini anglatadi. Har bir insonning ismi uni boshqa shaxslardan ajratib turadi. Insonga berilgan ism uning jismiga aylanadi, uning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Shuningdek,

shaxsning ismi va unvoni uning maqomini, siyosiy qarashlarini yoki qahramonlarning o'zaro munosabatlarining rasmiylik darajasini ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar nuqtai nazaridan, ismlardagi ma'no qahramonlarning ijtimoiy va individual tarzda qanday qabul qilinishiga ta'sir etishi mumkin. Mualliflar qahramonlarga ism tanlashni asar yozishdan ancha oldin boshlaydilar va o'z qahramonlarini aynan shu ismlar orqali xarakterini, ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligini, kuch-qudratini va nimalarga qodir ekanligini ko'rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi asardagi qahramonlarning ismlarini o'qish orqali ularning kim ekanligi haqida dastlabki ma'lumotga ega bo'ladi. Masalan, tahlil qilinayotgan J.K.Roulingning "Garri Potter" asaridagi qahramonlarning ismlari orqali ikki xil dunyo – sehrgarlar va oddiy odamlar dunyosi o'rtasida ko'rinmas, ammo mavjud bo'lgan chegarani idrok etish mumkin.

Tahlil va natijalar. J.K.Roulingning "Garri Potter" asaridagi barcha qahramonlarning ismlari quyidagi guruhga bo'linadi:

1. Ismlar: Garri, Vernon, Petunya, Dudli, Albus, Minerva, Rubeus, Lili, Jeyms, Sirius, Korniliy, Gripxuk, Germiona, Xedvig. (Harry, Vernon, Petunia, Dudley, Albus, Minerva, Rubeus, Lily, James, Sirius, Cornelius, Griphook, Hermione, Hedwig).

2. Familiyalar: Potter, Dursli, Dambldor, Makgonagall, Xagrid, Blak, Fudge, Uizli, Longbottom, Flamel, Griffindor (Potter, Dursley, Dumbledore, McGonagall, Hagrid, Black, Fudge, Weasley, Longbottom, Flamel, Gryffindor).

3. Odamlarga qo'yilgan ismlar: Names given to people or taken by them Voldemort, Siz-Bilasiz-Kim, U-Kim Nomlanmasligi Kerak, Deyarli Boshsiz Nik). (Voldemort, You-Know-Who, He-Who Must-Not-Be-Named, Nearly Headless Neck).

Endi bevosita "Garri Potter" asaridagi ba'zi qahramonlarni ism shariflarini tahlil qilamiz. Garri Potterdan keyin hikoyada paydo bo'lgan birinchi personajlar Durslilar oilasidir. Ular uch kishilik oddiy oila bo'lib, Garri yetim qolganidan so'ng uni o'z qaramog'iga olishadi. Ular Garri bilan onasi tomonidan qarindosh, onasi esa Vernon Durslining rafiqasi Petunya Evansning singlisi bo'ladi. Oilaviy davrani to'ldirish uchun ularning o'g'li Dadli Durslini ham eslatib o'tish kerak.

Dursli. Etimologiyasi. Glostershirdagi kichik shahar. Asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan aholi punkti bo'lib, u yerda xaridorlar va savdogarlar yashagan. Transport aloqalari yaxshi rivojlanmagan hudud bo'lgan.

Semantikasi. J.K.Rouling bu ismni Britaniyadagi kichik shahardan olgan bo'lishi mumkin. U o'zi tug'ilib o'sgan joyga yaqin bo'lgani uchun u yerga tez-tez borib turgan, lekin unga unchalik yoqmagani haqida yozgan.

Sintaksis. Turdosh ot, familiya yoki shahar nomi bilan bog'liq.

Lili. Etimologiya. Qadimgi inglizcha *lilie*, lotincha *lilia* so'zidan olingan bo'lib, *lilium* "Liliya" degan ma'noni anglatadi, yunoncha *leirion* bilan kelib chiqishi bir xil, ikkalasi ham ehtimol yaqin sharq tillarida (de Vaan compares Coptic hreri, hleli "lily") so'zining buzilgan talaffuzidagi varianti. So'z 16-asrda birinchi marta nemis o'simlikshunoslari tomonidan qo'llanilgan. So'z lotinchadan nemis tiliga *lilie*, fran-suz tilida *lis*, ispan tilida *lirio*, italyan tilida *giglio* kabi qo'llanilgan. 1530-yillarda bu so'z sifat *oq, toza* va *go'zal* ma'nosida ishlatilgan. Bundan tashqari, gul *bokiralik, poklik, go'zallik* va *begunohlik* ramzini ham bildiradi (https://www.etymonline.com/search?q=Lily).

Semantikasi. 1. Lili – *ulug'vorlik, boylik, g'urur, begunohlik, poklik* ma'nolarini bildiradi.

2. Lily-white – *poklik, kamtarlik, bokiralik, ulug'vorlik, jannatga teng* man'nolarini bildiradi. "Oq liliya" Rim mifologiyasidagi xudolar malikasi Junoga bog'liq hikoya borligi aytiladi, unga ko'ra Juno o'g'li Gerkulesni emizayotganda, sut sachrab ketadi va bu osmondagi Somon yo'li (Milky Way) deb ataladigan yulduzlar guruhi yaralgan va undan yerga tushgan sutdan liliyalar paydo bo'lgan degan afsonalar mavjud.

3. Liliya – *olov* rang – *olov, men siz uchun yonaman* degan ma'nolarni ham anglatadi.

4. Liliya – sariq – men havoda uchib yuribman, yolg'on, quvnoq degan ma'nolarni anglatadi.

Sintaksis. Atoqli ot (N). Sifat (adj).

J.K.Roulingning har bir qahramonlarining ismlari o'zining asl ma'nosiga ega. Masalan, *Draco* va *Sirius* kabi ismlar, mos ravishda, ajdaho va it yulduzi nomlaridan olingan bo'lib, sehrli dunyo olamini tushunishga yordam beradi. *Sirius* uchun "it yulduzi" nomining ishlatilishi, u animagus va ushbu turkumning uchinchi kitobida vaqtining ko'p qismini it sifatida o'tkazadi. U ismlardan sehrli dunyoni bilish uchun foydalanadi, bu bilan qahramonning xarakterini bilib olishga yordam beradi. U *Rita Skeeter, Minerva McGonagall, Severus Snape va Bellatrix Lestrange* kabi qahramonlarning ismlarini yanada esda qolarli, obrazli jonli chiqishi uchun alliteratsiyadan foydalanadi.

Xulosa va takliflar. Til dunyoning manzarasni idrok etish va aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir til o‘z egalarining dunyoqarashini shakllantiruvchi milliy va o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Inson ismlari jamiyatda shaxsning o‘zini anglashda, bilishda va qahramonlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Bular esa olamning lisoniy manzarasi mifologemalar, metaforalar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar va ramzlar kabi turli vositalar orqali ifodalanadi. Shuningdek, badiiy adabiyotlardagi qahramon ismlarini lingvistik tahlil qilib o‘rganishning ahamiyati, ularning kognitiv faoliyatiga ta’sir etishdagi roli beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Худойберганова З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. “Замонавий таълим”, “Современное образование”, Т., 2016, № 1, 5-бет.

(2). Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. Т., “Университет”, 2018, 180-бет.

(3). Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language (2nd ed.), Cambridge: Cambridge University Press. 1997.

(4). Fernandes L. Translation of Names in Children’s Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play. New Voices in Translation Studies, 2006, 2, p. 44–57.

(5). Fernandes L. Translation of Names in Children’s Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play. New Voices in Translation Studies, 2006, 2, p. 44–57.

(6). Algeo John., Algeo Katie. Onomastics as an Interdisciplinary Study. Name: Journal of the American Name Society, 2000. 48. September/December, p. 265–274.

(7). Algeo John., Algeo Katie. Onomastics as an Interdisciplinary Study. Name: Journal of the American Name Society, 2000, 48. September–December, p. 265–274.

(8). Lombardi Esther. Literature. About.com Guide. Retrieved September 2, 2013, from http://classiclit.about.com/od/literaryterms/g/aa_whatisliter.htm

(9). Mill J.S. A System of Logic Ratiocinative and Inductive. London, Routledge, 1843.

(10). Флоренский П.А. История философии философия историческая литература. 2000.

(11). Wamitilia Kyallo Wadi. What’s in a Name. Towards Literary Onomastics in Kiswahili Literature. Afrikanistische Arbeitspapiere – Schriftenreihe des Kölner Instituts für. 1999, Afrikanistik, 60, p. 35–44.

(12). Bhavikgiri Vishnugiri Goswami. An analysis of Linguistic features in Harry Potter book series. SURABHI – International Peer-Reviewed Referred Journal Vol. 1, January, 2022 (58th Issue), p. 28.

(13). Colbert D. The Magical Worlds of Harry Potter. London, Penguin Group, 2001.

https://www.etymonline.com/search.

www.harrypotterfans.net/potterica/index.html – accessed September 2011.

Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.)

QORAQALPOQ TILIDA ANTONIMIK MUNOSABATDAGI FE‘L SO‘Z TURKUMINING GURUHLARI

Annotatsiya. *Qoraqalpoq tilida fe‘l so‘z turkumi antonimiya hodisasini hosil qilishda unumli hisoblanadi. Fe‘llardan yasalgan antonimlar bir qancha semantik guruhlarni tashkil qiladi. Ulardan ba‘zilari tilda faol ishlatilsa, ba‘zilari bunday xususiyatga ega emas. Bosh kelishikdagi so‘zlar va fe‘l so‘zlarga ko‘makchi fe‘llarning birikishidan qo‘shma fe‘llar antonimik munosabatga kirishadi. Sifatdoshning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari harakat orqali predmetning belgisini bildirib kelganda o‘zaro antonim bo‘la oladi.*

Kalit so‘zlar: *fe‘l antonimlar, semantik guruhlar, qo‘shma fe‘llardagi antonimiya, bo‘lishlilik va bo‘lishsizlik formalaridagi antonimiya, sifatdoshlardagi antonimiya.*

ГРУППЫ ГЛАГОЛЬНЫХ КАТЕГОРИЙ В АНТОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данное время глагол как часть речи считается актуальным для создания антонимии в каракалпакском языке. Антонимы, образованные от глаголов, создают несколько семантических групп. Некоторые из них активно используются, а некоторые не имеют таких свойств. К словам основного падежа и глагольным словам с добавлением вспомогательных глаголов, соединенные глаголы образуют антонимическое отношение. Причастия положительной и отрицательной формы при обозначении признака действия предмета между собой могут стать антонимами.*

Ключевые слова: *глагольные антонимы, семантические группы, антонимия в соединенных глаголах, антонимия положительной и отрицательной формы, антонимия причастий.*

GROUPS OF VERBS IN ANTONYMIC RELATIONS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE

Annotation. *The branch of verb in the Karakalpak Language is useful in building the antonymic situation. The antonyms built by the verbs, organize many semantic groups. Some of them are used in the*

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

FIZIKA-MATEMATIKA		
Alishev Abdumannon, Baxtiyorova Kamola	Ba'zi integro-differensial tenglamalar sistemasining asimptotik integrallash	**3**
Azimov Qaxramon, Rahimov Boyhuroz Shermuhammadovich	Sezgirlikni tahlil qilishning bir usuli haqida	**8**
Axmedov Nasriddin Baxodirovich	Elastik to'ldiruvchili silindrik qobiqlarning xususiy chastotalari	**11**
Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich, Ergasheva Nilufar Mansurovna	Tovush tezligidan katta bo'lmagan tezlikda harakatlanuvchi nuqtaviy manbadan hosil bo'ladigan to'lqin xususiyatlari	**16**
Usarov Begzod O'ralovich	"To'rtburchaklar" usuli va uning xossalari	**24**
Nushtayeva Ozoda Xasilovna	O'z-o'zini tozalash funksiyasiga ega bo'lgan quyosh batareyasi yuzasining ifloslanish darajasini masofadan monitoring qilish uchun qurilma	**32**
Vaisova Moxira Davlatboyevna, Salayeva Rohila Rustamovna	$\mathbb{C}^2$ fazoda α-subgarmonik funksiyaning integral xossasi	**38**
FALSAFA		
Azimov Ulug'bek Abduxalilovich	Ijtimoiylashuv jarayonida qadriyatlarning roli	**44**
Shonazarov Jamshid Shuhratovich	Davlat xizmatchilari faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muaommolari va yechimlar	**47**
Joldasbayev Oralbay Yernazarovich	Berdaq ijtimoiy-falsafasiy qarashlarida tenglik va adolat kategoriyalarining tahlili	**50**
Ahmedov Farruh Nurmuhammad o'g'li	Yangi O'zbekiston yoshlarining g'oyaviy tarbiyasi	**53**
Rustamov Ramz Rizoqulovich	Jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yo'llari	**58**
Jamolov Davronbek Baxtiyor o'g'li	Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda ta'sir etuvchi omillar	**61**
Ochilov Sarvar Safayevich	Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhit	**64**
Utegenova Jamila Djolmurzayevna	Bioetika sohasini shakllantirish mexanizmlari	**68**
TILSHUNOSLIK		
Xidirova Maxfuza Amirqulovna	Yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining lingvostatistik va tematik tahlili	**71**
Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich	Diskurs kognitiv tahlilining kontekstual aspekti	**76**
Irisovna Sayida Abdiyeva	Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni	**78**
ADABIYOTSHUNOSLIK		
Allashev Akbarbek Anvar o'g'li	Adabiyotda konflikt va ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasidagi aloqadorlik	**81**
Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi	"Boburnoma" sujeti va tavsiflash prinsipi	**84**
Qarshibayeva Uljan Davirovna	Balzak asarlari qahramonlari taqdiriga ijtimoiy muhit ta'siri	**87**
Rakhimova Dilfuza Masharip qizi	Uilyam Golding asarlarini o'rganishning tamoyillari	**91**
Kenjayeva Umida, Oydinova Parizod	Adekvat topishmoqlar	**94**
JURNALISTIKA		
Egamnazarov Bobur	Jurnalistikada ixtisoslashuv va qurilish tematikasini yoritishdagi o'ziga xosliklar	**99**
Kallibekova Gulnara Palbekovna	Leksik birliklarni to'g'ri qo'llashda jurnalist mahorati	**101**

PEDAGOGIKA		
Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich	Talabalarni milliy kontent asosida o‘qitishning modeli	**106**
Toshpo‘latova Inobat Ulug‘bek qizi	Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	**109**
Abduraxmonava Muxayoxon Abduraximovna	Talabalarni o‘qitishda STEAM ta’limining qollanilishi	**111**
Axmedov Akmal Yusufovich	Kommunikativ kompetentlik bo‘lajak pedagog ijtimoiy va kasbiy faoliyati asosidir	**115**
Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna	Loyihaga asoslangan ta’lim metodining dars jarayonida qo‘llanilishi va bunda pedagogning roli	**118**
Abdullayeva Saida Malikovna	CBI yondashuvining chet tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati	**120**
Xuramov Ilxom Panjiyevich	Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish	**125**
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari	**129**
Davletova Ullijon Sapavoy qizi	Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik rejasi tamoyillari	**132**
Urunova Shaxlo Rafikovna	Terminologik leksikani o‘qitishda zamonaviy interaktiv yondashuvlar	**135**
Nizamova Umida Sandjarovna	Nofilologik yonalishi talabalariga chet til o‘qitishda produktiv yondashuvning ahamiyati	**137**
Juginisova Juldiz Imnixashimovna, Asanova Uldawlet Sagindikovna, Saxanova Liza Jamixatovna	Masofaviy o‘qitishni tashkil etish va boshqarish	**140**
Shadiyeva Nigora Sharipovna	Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili	**143**
Qutlimuratova Barno Xursandbekovna	Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan o‘zbek talabalari: korpus yordamida xatoliklar tahlili	**147**
Matniyazov Xasan Kamolovich	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatish va nazorat qilish	**150**
Каландаров Сардар Ибрагимович	Свободное обучение и сотрудничество: педагогическая система Селестена Френе	**153**
Айбергенова Айнура Рустемовна	Развитие навыков письменной речи у студентов-медиков при обучении РКИ	**156**
Исраилов Джахонгирхон Джамшидхонович	Типы медицинских текстов и их применение в обучении английскому языку будущих врачей	**159**
Hodiyeva Yulduz Yunusovna	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun SCAMPER texnologiyasidan foydalanish	**162**
Irbutaeva Nigora Dilshodovna, Makhmudova Asal Malikovna, Normamatova Maftuna Fozilovna	Studying Medical Terms by Non-Russian-Speaking Students in Russian Language Classes at Medical Universities	**165**
Xakimova Munira Xabibullayevna	Main Factors Which are Influenced on Reading Skills	**169**
Arslonbekovna Ra’no Arslonbekova	Transforming traditional teaching through ESP	**171**
ILMIY AXBOROT		
Hamrayeva Saida Ismailovna	“Ma’lumotlar intellektual tahlili” fani uchun CRISP-DM metodologiyasi	**175**
Madatov Xabibulla Axmedovich	Bazis so‘zlar bilan ishlovchi elektron tizim: lingvistik va texnologik qarashlar	**178**
Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich	Navro‘zning paydo bo‘lish tarixi va rivojlanish bosqichlari	**181**
Maxsudova Xolisxon Ummatovna	Mashinasozlik terminologiyasining lingvistik tuzilishi va kontekstual foydalanish	**184**
Maxammadjonova Mushtariybonu Jamoliddin qizi	Ingliz va o‘zbek tillarida “motam” semantik maydonining o‘ziga xos xususiyatlari	**186**

Yuldashev Doniyor Taxirovich, Pulatova Muhayyo Azimboyevna	Ingliz va o‘zbek tilidagi atoqli otlarning tarjima metodlari	**189**
Jurayeva Iroda Axmedovna	J.K.Roulingning “Garri Potter” asaridagi antroponimlarning milliy-lisoniy xususiyatlari	**193**
Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich	Qoraqalpoq tilida antonimik munosabatdagi fe‘l so‘z turkumining guruhlari	**196**
Qodirova Xurshida Marselovna	Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati natijalari va dolzarb vazifalar	**199**
Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi	“Smile/tabassum” tushunchalarining ingliz va o‘zbek tillarida jins va yosh omillari asosida ifodalanishining lingvistik tahlili	**202**
Karimova Munisa Yaxyoyevna, Imamov Navruz Pattaqulovich	O‘zbek va ingliz tillarida fe’lning chegaralanmaganlik xususiyati va harakat tarzi qiyosiy tahlili	**205**
Dlanova Palzira Gulimbetovna	Talabalarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari	**208**
Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich, Shomurotova Nigora Otabayevna	She’riy tarjimada milliy koloritning aks etishi	**211**
Каримова Ферузахон Иноятовна	Словообразование и анализ сложных слов английского и узбекского языков	**216**
Солиев Ибодуллохон Исматуллаевич	Механизмы внедрения институциональной автономии в ВУЗах узбекистана: опыт, проблемы и перспективы	**219**
Анварова Мафтунахон Дилмурод кизи	Эволюция концепта семьи в разных культурах	**221**
Саттарова Елена Анатольевна	Лингвистическое определение эвфемизмов в медицинской профессиональной речи	**224**
Qurbonbayeva Sojidabonu Muxtar kizi	Linguocultural Study of Proverbs in English and Uzbek Languages	**226**
Mirzayeva Gulnozakhon Ilkhamovna	A Comparative Analysis of Phraseological Units Depicting the Human Psyche in English and Uzbek	**229**
Polvanova Mahzuna Farxadovna	Analyzing the Grammatical Structure of Phraseologizms that Contain the Word “Money” in Both Uzbek and English	**231**
Rahmonova Gulhayo Khalilovna	The Peculiarities of Used Stylistic Devices in “The Portrait of the Artist as a Young Man” by James Joyce	**234**
Kodirova Dilrabo Shamsidinovna	Metonymic Transition of Words into Mining Terminology	**237**
Polvannazirova Sevara, Atajonova Zukhra	Navigating Linguistic and Cultural Complexities in Literary Translation: a Case Study of Utkir Hoshimov’s “Tarnov”	**241**